

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY BANKI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan

Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma’qullangan

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi 154-I-sonli **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 247-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 5, 124-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 9, 496-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2009-yil, № 4, 133-modda, № 9, 330, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2012-yil, № 4, 105-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (**ilova** qilinadi).

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;  
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**4-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 11-noyabr,  
O‘RQ-582-son

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida

(yangi tahriri)

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tartibga solishdan iborat.

#### 2-modda. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

#### 3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) huquqiy maqomi, vakolatlari, vazifalari, faoliyatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Markaziy bank yuridik shaxs bo‘lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Markaziy bank o‘z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

Markaziy bank davlatning majburiyatlari yuzasidan, davlat esa Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, agar ularning o'zi bunday majburiyatlarni o'z zimmasiga olmagan bo'lsa yoki qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

Markaziy bank, shuningdek uning tasarrufidagi tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o'z nomi yozilgan muhri va blankasiga ega bo'ladi.

#### **4-modda. Markaziy bankning mol-mulki**

Markaziy bankning mol-mulki uning pul qimmatliklari va boshqa moddiy qimmatliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bankning balansida aks ettiriladi.

Markaziy bank o'z balansida aks ettirilgan mol-mulkka egalik qilishga, undan foydalanishga va uni tasarruf etishga haqli.

#### **5-modda. Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari**

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari:

narxlarning;

bank tizimining;

to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir.

Markaziy bankning bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha faoliyati narxlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Foyda olish Markaziy bankning maqsadi hisoblanmaydi.

#### **6-modda. Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari**

Markaziy bank:

uchinchi shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishga, bundan o'z tasarrufidagi tashkilotlar mustasno;

tijorat faoliyatini amalga oshirishga;

uchinchi shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berishga;

banklarning kapitallarida va boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtirok etishga haqli emas, bundan valyuta birjasining, shuningdek Markaziy bankning faoliyatini ta'minlovchi o'z tasarrufidagi tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishi mustasno.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, boshqa davlat organlariga va tashkilotlariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining (bundan buyon matnda Davlat budjeti deb yuritiladi) taqchilligini moliyalashtirish uchun kreditlar yoki moliyaviy yordam bermaydi.

#### **7-modda. Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga doir choralar**

Markaziy bank manfaatlar to'qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash va boshqarishga oid siyosatni, shuningdek korrupsiyaning oldini olish yuzasidan Markaziy bankning hamda uning tasarrufidagi tashkilotlarning barcha xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

#### **8-modda. Hisobdorlik**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Markaziy bankning yillik hisobotini auditorlik tashkilotining xulosasi bilan birga ko'rib chiqadi.

#### **9-modda. Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari**

Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy va yuridik shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

#### **10-modda. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi**

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimidir.

Markaziy bank o'zining vakolatlarini amalga oshirish va vazifalarini bajarish uchun o'z tasarrufida tashkilotlar tashkil etishga haqli.

Markaziy bank Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan hududiy bosh boshqarmalarini tashkil etadi.

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlar o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadigan nizom (ustav) asosida amalga oshiradi.

## **2-bob. Markaziy bankning vakolatlari va vazifalari**

### **11-modda. Markaziy bankning vakolatlari**

Markaziy bank:

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi; bank tomonidan milliy va chet el valyutasida mijozlarning hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida pul belgilarini muomalaga kiritadi va muomaladan chiqaradi;

qimmatbaho metallardagi aktivlarni to'ldirish uchun davlatning affinlangan oltin sotib olishga bo'lgan ustuvor huquqini amalga oshiradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan quymalarni muomalaga chiqaradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini sotib olish va sotish tartibini belgilaydi;

banklar tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

o'zi belgilaydigan tartibda va shartlarda banklarga qisqa muddatli kreditlar, shuningdek likvidlikni tezkor sur'atda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar beradi;

banklar, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini litsenziyalashda hamda banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarini (bundan buyon matnda kredit tashkilotlari deb yuritiladi) va banklar guruhlarini tartibga solish va nazorat qilishda asoslantirilgan mulohazadan foydalanadi;

o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni davlat organlari va tashkilotlaridan so'rab oladi;

o'z balansida aks ettirilgan mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

o'z tasarrufidagi tashkilotlarni, shu jumladan valyuta birjasini tashkil etadi;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, shu jumladan chet el hukumatlariga, boshqa davlatlarning markaziy banklariga bank xizmatlarini ko'rsatadi;

boshqa davlatlarning markaziy banklarida va xalqaro moliya institutlarida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini o'z vakolatlari doirasida ifoda etadi;

chet davlatlarda vakolatxonalar ochadi;

obligatsiyalar emissiyasini amalga oshiradi;

o'z nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi nomidan kliring va to'lov bitimlari tuzadi;

kredit tashkilotlaridagi qoidabuzarliklarni aniqlash yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshiradi, shu jumladan masofadan turib ham amalga oshiradi;

banknotalar va tangalar tasvirlarini aks ettirishga doir talablarni belgilaydi;

banklar uchun hisobvaraqlar ochadi;

autrayt (spot va forvard) sotib olish va sotish yoki kelishuvga binoan qaytarib sotib olish yo'li bilan, shuningdek bozor vositalarini, valyutalarni va qimmatbaho metallarni kreditlash yoki jalb etish yo'li bilan moliya bozorlarida faoliyatni amalga oshiradi.

Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlariga ham ega bo'lishi mumkin.

### **12-modda. Markaziy bankning vazifalari**

Markaziy bank:

pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida inflatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi;

O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshiradi;

har yili O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budjeti loyahasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha axborotni taqdim etadi;

naqd pul muomalasini tashkil etadi;

valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;

valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalaydi, shuningdek kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi;

hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig'iga binoan amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash choralari ko'radi;

ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning rioya etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshiradi;

Xalqaro valyuta fondining O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag'lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarni va bitimlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshiradi;

kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralari ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini (bundan buyon matnda xalqaro zaxiralar deb yuritiladi), shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi.

Markaziy bank ushbu Qonun bilan belgilangan maqsadlariga erishish uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

### **3-bob. Markaziy bankning moliyaviy holati**

#### **13-modda. Markaziy bankning ustav kapitali**

Markaziy bank ustav kapitalining miqdori bir trillion so'mni tashkil etadi. Ustav kapitali miqdorini ko'paytirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi yoki undan zakalat ta'minoti sifatida foydalanilishi mumkin emas.

#### **14-modda. Foydani aniqlash va taqsimlash**

Markaziy bankning foydasi har bir moliya yili uchun zaxiralar shakllantirilganidan, umidsiz, shubhali qarzlar va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning o'rni qoplanganidan, barcha

daromadlar hamda xarajatlar hisobga olinganidan, shuningdek aktivlar va passivlar haqiqatda baholanganidan so'ng aniqlanadi.

Markaziy bankning chet el valyutasi kursining yoki qimmatbaho metallar qiymatining o'zgarishi natijasida xalqaro zaxiralarni qayta baholashdan hosil bo'ladigan realizatsiya qilinmagan daromadlari va xarajatlari xalqaro zaxiralarga oid operatsiyalar bo'yicha qayta baholash fondiga kiradi. Mazkur realizatsiya qilinmagan daromad Davlat budjetiga yo'naltirilmaydi.

Markaziy bankning foydasi uning boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir vaqtda taqsimlanadi.

Markaziy bank boshqaruvining qaroriga binoan aniq maqsadli zaxiralar va fondlar shakllantirilishi mumkin.

Aniq maqsadli zaxiralar va fondlar belgilangan tartibda to'ldirilganidan keyin foydaning qolgan qismi Davlat budjeti daromadiga yo'naltiriladi. Agar ustav kapitali va umumiy zaxiralar summasi Markaziy bankning muomaladagi pullar hamda Markaziy bankka nisbatan moliyaviy talablar sifatida belgilanadigan pul majburiyatlarining, bundan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va xalqaro moliya tashkilotlari oldidagi majburiyatlar mustasno, o'n foizidan kamrog'ini tashkil etsa, Davlat budjeti daromadiga foydaning ellik foizdan oshmaydigan miqdori o'tkaziladi.

Yillik hisobot ko'rib chiqilmaguniga qadar foydaning qolgan qismini Davlat budjetiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

#### **15-modda. Markaziy bankning yillik hisoboti**

Markaziy bankning hisobot davri kalendar yilning 1-yanvaridan 31-dekabriga qadar etib belgilanadi. Yillik hisobot auditorlik tashkilotining xulosasi ilova qilingan holda 15-maydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ko'rib chiqishi uchun taqdim etiladi.

Markaziy bankning yillik hisoboti:

iqtisodiyot holatining tahlilini;

Markaziy bankning faoliyati to'g'risidagi hisobotni, shu jumladan pul-kredit siyosatining va bank sektori holatining sharhini o'z ichiga oladi.

Markaziy bank har yili yillik hisobotni o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

#### **16-modda. Markaziy bank faoliyatining ichki auditi**

Markaziy bank faoliyatining ichki auditi Markaziy bankning ichki auditorlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Ichki auditorlik xizmati o'z faoliyatida Auditorlik qo'mitasiga hisobdordir.

Markaziy bankda uch nafar a'zodan, shu jumladan bir nafar mustaqil a'zodan iborat bo'lgan Auditorlik qo'mitasi tashkil etiladi. Auditorlik qo'mitasining vakolatlari va faoliyatining reglamenti, uning huquqiy maqomi, shuningdek uning a'zolariga nisbatan talablar Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

Auditorlik qo'mitasining a'zolari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tayinlanadi. Auditorlik qo'mitasi tarkibiga Markaziy bank boshqaruvining a'zolari kiritilishi mumkin.

Auditorlik qo'mitasi o'z faoliyatida Markaziy bank boshqaruviga hisobdordir.

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatining ichki auditi yiliga kamida bir marta o'tkaziladi.

#### **17-modda. Markaziy bank faoliyatining tashqi auditi**

Markaziy bank faoliyatining tashqi auditi Auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik tashkilotlari tomonidan har yili o'tkaziladi.

Markaziy bank faoliyatini tekshirish jarayonida tashqi auditor tomonidan olingan axborot maxfiydir va u Markaziy bankning roziligisiz oshkor etilishi mumkin emas.

Tashqi auditni o'tkazuvchi auditorlik tashkilotiga nisbatan qo'yiladigan talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

### **4-bob. Markaziy bankni boshqarish**

#### **18-modda. Markaziy bank boshqaruvi**

Markaziy bankning oliy organi Markaziy bank boshqaruvidir.

Markaziy bank boshqaruvi Markaziy bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi va uni boshqaradi.

### **19-modda. Markaziy bank boshqaruvining tarkibi**

Markaziy bank boshqaruvi to'qqiz nafar kishidan iborat bo'ladi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank boshqaruvining raisi bo'ladi. Markaziy bank boshqaruvining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Markaziy bank boshqaruvi tarkibiga Markaziy bank raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, shuningdek boshqaruvning ikki nafar mustaqil a'zosi kiradi.

Markaziy bank boshqaruvining mustaqil a'zolari Markaziy bank raisining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

### **20-modda. Markaziy bank boshqaruvining vakolatlari**

Markaziy bank boshqaruvi:

pul-kredit siyosatining asosiy parametrlarini, shu jumladan likvidlikni berish va olib qo'yish bo'yicha Markaziy bank operatsiyalarining hajmlari, limitlari va normativlarini, Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini, shu jumladan qayta moliyalashtirish stavkasini va (yoki) asosiy stavkani, majburiy zaxira talablarining miqdorlarini (majburiy zaxiralar normativlarini, majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsiyentini) va beriladigan kreditlarga doir ta'minot turlarining ro'yxatini belgilaydi;

kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi, shuningdek xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzishi hamda ularga qo'shilishi masalasini ko'rib chiqadi;

pul belgilarining nominal qiymatini, namunalarini va ularni qaytarib olish shartlarini belgilaydi;

Markaziy bankning buxgalteriya hisobini, hisobotini va moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish tartibini belgilaydi;

kredit tashkilotlari, shu jumladan tizimli ahamiyatga molik banklar hamda banklar guruhlarini uchun prudensial normativlarni hisoblab chiqarish tartibini va ularning yo'l qo'yiladigan qiymatlarini belgilaydi;

kredit tashkilotlari uchun moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini tasdiqlaydi;

kredit tashkilotlari, banklar guruhlarini va kredit byurolari uchun moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish qoidalarini, uning tuzilishini va mazmunini tasdiqlaydi;

bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining va kredit byurolarining faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani berish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish hamda bekor qilish haqida, shuningdek qimmatli qog'ozlarning blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalash to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini, Markaziy bank markaziy apparatining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha bosh boshqarmalarining tuzilmasini hamda ularning shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarni tashkil etish, qayta tashkil etish hamda tugatish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

Markaziy bankning xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning yillik va moliyaviy hisobotlarini ko'rib chiqadi;

Markaziy bank tarkibiy bo'linmalarining hamda tasarrufidagi tashkilotlarning rahbarlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, o'z tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini va ma'ruzalarini eshitadi;

Markaziy bankning Kredit qo'mitasi va Bank nazorati qo'mitasi nizomini hamda tarkibini tasdiqlaydi;

Markaziy bank Kredit qo'mitasining va Bank nazorati qo'mitasining hisobotlarini hamda ma'ruzalarini eshitadi;

Markaziy bank faoliyatini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda boshqarishga doir siyosatni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, mehnat shartnomasini bekor qilish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi tartibini belgilaydi;

bank tizimi masalalari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablar doirasida qarorlar qabul qiladi;

xalqaro zaxiralarni boshqarish, hisobga olish va saqlash strategiyasini belgilaydi;

kredit tashkilotlarining o'z xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirishi chog'idagi faoliyatiga doir minimal talablarni tasdiqlaydi;

kredit byurolarining faoliyatiga doir talablarni tasdiqlaydi;

Markaziy bank vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqadi va hal qiladi.

### **21-modda. Markaziy bank boshqaruvining majlislari**

Markaziy bank boshqaruvining majlislari oyiga kamida bir marta o'tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining majlislari Markaziy bank raisi tomonidan chaqiriladi. Majlislar Markaziy bank boshqaruvining kamida uch nafar a'zosi talabi bo'yicha ham chaqirilishi mumkin.

Markaziy bank boshqaruvi majlislariga Markaziy bank raisi, rais bo'lmagan taqdirda esa uning birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosarlaridan biri raislik qiladi.

Markaziy bank boshqaruvi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda boshqaruv majlisi vakolatli bo'ladi. Markaziy bank boshqaruvining qarorlari hozir bo'lgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

Markaziy bank boshqaruvi majlislari, qoida tariqasida, yopiq tartibda o'tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining ochiq majlislarini o'tkazish rejalari, shu jumladan majlislarning kun tartibi, o'tkaziladigan joyi hamda vaqti Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Markaziy bank boshqaruvining majlislari reglamentga muvofiq o'tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining to'xtami qaror tarzida qabul qilinadi.

### **22-modda. Markaziy bank raisi**

Markaziy bank raisi:

Markaziy bank va uning boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi hamda Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar bo'ladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijda Markaziy bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi;

ichki audit xizmatiga rahbarlik qiladi;

Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, bundan ushbu Qonunga binoan Markaziy bank boshqaruvining vakolatlariga kiritilgan masalalar mustasno;

Markaziy bank boshqaruvining qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar qabul qiladi;

Markaziy bankning faoliyatini va joriy operatsiyalarini tezkor boshqarishga doir harakatlarni bajaradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobot taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida, vazirliklar, davlat qo‘mtalari va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida Markaziy bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo‘yicha Markaziy bank nomidan ish yuritadi;

ayrim masalalarni hal qilishni o‘z o‘rinbosarlariga, markaziy devonning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga, Markaziy bankning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmalari rahbarlariga topshiradi;

jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabulini o‘tkazadi.

Markaziy bank raisining vakolat muddati — besh yil.

Markaziy bank raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifalarini birinchi o‘rinbosari yoki o‘rinbosarlaridan biri bajaradi.

### **23-modda. Markaziy bank raisini egallab turgan lavozimidan ozod qilish uchun asoslar**

Markaziy bank raisi egallab turgan lavozimidan quyidagi asoslarga ko‘ra ozod qilinishi mumkin:

vakolat muddati tugaganda;

egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g‘risida sabablari ko‘rsatilgan arizasiga ko‘ra;

o‘ziga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra o‘z xizmat vazifalarini bajara olmaganida, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

vafot etganda yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e‘lon qilinganda;

egallab turgan lavozimiga munosib bo‘lmagan xatti-harakatlar sodir etganda, shu jumladan ushbu Qonunni qo‘pol ravishda buzganda va Markaziy bank manfaatlariga jiddiy zarar yetkazganda.

### **24-modda. Markaziy bank raisining o‘rinbosarlari**

Markaziy bank raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari Markaziy bank raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Markaziy bank raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari egallab turgan lavozimidan quyidagi asoslarga ko‘ra ozod qilinishi mumkin:

egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g‘risida sabablari ko‘rsatilgan arizasiga ko‘ra;

o‘ziga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra o‘z xizmat vazifalarini bajara olmaganida, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

vafot etganda yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e‘lon qilinganda;

egallab turgan lavozimiga munosib bo‘lmagan xatti-harakatlar sodir etganda, shu jumladan ushbu Qonunni qo‘pol ravishda buzganda va Markaziy bank manfaatlariga jiddiy zarar yetkazganda.

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish chog‘ida manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash va boshqarish maqsadida Markaziy bank raisi o‘z o‘rinbosarlari, mustaqil tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari o‘rtasida vakolatlarning taqsimlanishini, shu jumladan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, xalqaro zaxiralarni boshqarish, moliya bozorlari sohasida bank tomonidan tartibga solish, nazorat qilish va tekshirishni amalga oshirish chog‘ida vakolatlarning taqsimlanishini ta‘minlashi shart.

### **25-modda. Markaziy bankning xodimlari**

Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, mehnat shartnomasini bekor qilish, ularning mehnatiga haq to‘lash shartlari va boshqa mehnatga oid munosabatlar Markaziy bank tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Markaziy bank xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

haq to‘lanadigan biror-bir boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish, bundan ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish mustasno;



banklar, xo‘jalik boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kuzatuv kengashlari tarkibiga kirish;

o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan bank sirini tashkil etuvchi axborotni yoxud qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi cheklangan boshqa axborotni oshkor etish yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko‘zlab undan foydalanish.

Markaziy bank xodimlarini tadbirkorlik subyektlarining, shu jumladan kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining, banklar tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvlarini o‘tkazish uchun jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Markaziy bank xodimlarining malakasini va kasbiy darajasini baholash tartibi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

## **5-bob. Markaziy bankning pul-kredit siyosati**

### **26-modda. Markaziy bankning pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish**

Markaziy bank narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi chora-tadbirlar vositasida pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi:

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, shu jumladan inflatsiya ko‘rsatkichlari prognozlarini shakllantirish, shuningdek uning maqsadli ko‘rsatkichini belgilash;

kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

pul-kredit ko‘rsatkichlarining maqsadli mo‘ljallarini belgilash;

qayta moliyalashtirish stavkasini va (yoki) asosiy stavkani, shuningdek Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarini belgilash;

Markaziy bankda banklarning majburiy zaxiralariga doir normativlarni, shuningdek majburiy zaxiralar summasiga nisbatan o‘rtachalash koeffitsiyentini belgilash;

pul bozorida likvidlikni taqdim etish va uni olib qo‘yish bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazish; ichki valyuta bozorida intervensiyalarni amalga oshirish;

Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatini o‘tkazish.

### **27-modda. Pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari**

Markaziy bank har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida o‘ttiz kun oldin kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini bu haqda xabardor etadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagi axborotni:

o‘tkazilayotgan pul-kredit siyosatining asosiy prinsiplarini;

iqtisodiyotning o‘tgan davrdagi rivojlanish sharhini;

iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollarini, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini, shu jumladan inflatsiya, to‘lov balansi va pul-kredit ko‘rsatkichlarining prognozini;

kelgusi yil uchun inflatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlarini, pul-kredit siyosatining asosiy parametrlari va pul-kredit siyosati bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarni, shuningdek pul-kredit siyosatining maqsadlariga erishish tavakkalchiliklari tahlilini o‘z ichiga oladi.

Markaziy bank o‘z rasmiy veb-saytida:

har yili — pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini;

har chorakda — pul-kredit siyosatining sharhlarini;

har oyda — pul-kredit siyosatining asosiy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan pul massasining dinamikasi va tarkibini, bank tizimiga doir statistik ma’lumotlarni, Markaziy bankning operatsiyalari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni e’lon qiladi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga pul-kredit siyosati va bank sektorining holati to‘g‘risidagi har choraklik axborotni taqdim etadi.

### **28-modda. Pul-kredit ko‘rsatkichlarining maqsadli mo‘ljallari**

Markaziy bank inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, bir yoki bir nechta pul-kredit ko'rsatkichlari o'zgarishining maqsadli mo'ljallarini belgilashi mumkin.

### **29-modda. Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari**

Markaziy bank har xil turdagi pul-kredit operatsiyalari bo'yicha bir yoki bir nechta foiz stavkasini belgilashi mumkin.

Markaziy bank amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati doirasida bozor foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatish uchun foiz siyosatini qo'llaydi.

Markaziy bank pul-kredit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

### **30-modda. Majburiy zaxira talablari**

Pul-kredit siyosatini amalga oshirish doirasida Markaziy bank banklar jalb qilgan majburiyatlar ostida banklar tomonidan Markaziy bankda deponentga o'tkaziladigan majburiy zaxiralarning normativlarini belgilaydi.

Markaziy bank majburiy zaxira talablarining miqdorini, banklarning zaxiralar deponentga o'tkaziladigan majburiyatlari tarkibini, hisob-kitob qilish va zaxiralash tartibini, shuningdek majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsiyentini tasdiqlaydi.

Majburiy zaxiralarning normativlari barcha banklar uchun bir xildir.

Majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag'larini deponentga o'tkazish yo'li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag'ida majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsiyenti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o'rtachalashtirilgan miqdorini saqlab turish yo'li bilan ushlab turiladi.

Majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsiyenti qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda bo'lgan son bilan ifodalangan ko'paytiruvchidan iboratdir.

Minimal zaxira talablari normativlarining o'zgarishi bunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kamida bir oydan so'ng amalga kiritiladi.

Undiruvni Markaziy bankdagi hisobvaraqlarda banklar tomonidan deponentga o'tkazilgan majburiy zaxiralarga qaratishga yo'l qo'yilmaydi.

### **31-modda. Pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va olib qo'yishga doir operatsiyalar**

Markaziy bank bozor foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek bank tizimining likvidliligini ushlab turish va tartibga solish maqsadlarida pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va olib qo'yish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi. Mazkur operatsiyalar:

ta'minot ostidagi kreditlarni;

"svop" operatsiyalarini;

ochiq bozordagi operatsiyalarni;

qayta moliyalashtirishning maxsus mexanizmlarini;

depozit operatsiyalarini;

Markaziy bank obligatsiyalarining emissiyasini o'z ichiga oladi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan operatsiyalar umum qabul qilingan xalqaro amaliyot hisobga olingan holda Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa vositalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

### **32-modda. Markaziy bankning kreditlari bo'yicha ta'minot**

Markaziy bankning kreditlari bo'yicha quyidagilar ta'minot bo'lishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xalqaro zaxiralari toifasiga kiruvchi valyuta qimmatliklari;

O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;

banklarning kreditlari bo'yicha talab qilish huquqi;

likvidlilik va umum qabul qilingan xalqaro amaliyot hisobga olingan holda ro'yxati

Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qarz vositalari hamda boshqa qimmatliklar, shuningdek kafilliklar va bank kafolatlari.

Markaziy bank banklarni kreditlash shartlarini o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

### **33-modda. Tijorat banklarining likvidliligini favqulodda qo‘llab-quvvatlash**

Likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to‘lovlarning uzluksizligini ta‘minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo‘lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli. Mazkur kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo‘lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Mamlakatning moliyaviy tizimi barqarorligiga tahdid tug‘ilgan alohida hollarda Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan kreditni nisbatan yuqori foiz stavkasi bilan uzoqroq muddatga berishga yo‘l qo‘yiladi.

### **34-modda. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari**

Bozorning foiz stavkalari va bank tizimidagi likvidlilik darajasiga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda:

O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlarini, shuningdek Markaziy bankning o‘zi chiqargan obligatsiyalar tarzidagi qarz majburiyatlarini;

Markaziy bankning qaroriga ko‘ra boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin.

Markaziy bank Davlat budjetini moliyalashtirish uchun ochiq bozordagi operatsiyalardan foydalanishga, O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari birlamchi joylashtirilganda ularni sotib olishga haqli emas.

Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari limiti Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

### **35-modda. Markaziy bankning obligatsiyalari**

Markaziy bank faqat pul-kredit siyosatini amalga oshirish maqsadida obligatsiyalar emissiyasini amalga oshiradi.

Obligatsiyalarning emissiyasi, joylashtirilishi, muomalada bo‘lishi hamda muomaladan chiqarilishi tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

### **36-modda. Ichki valyuta bozoridagi valyuta intervensiyalari**

Markaziy bankning valyuta intervensiyalari pulga bo‘lgan umumiy talab va taklifga ta‘sir ko‘rsatish, shuningdek so‘m kursining ortiqcha o‘zgarishlarini yumshatish uchun ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish-sotish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

### **37-modda. Markaziy bankning pul bozoridagi ishtiroki**

Pul bozori milliy va chet el valyutalaridagi pul mablag‘larini joylashtirish hamda jalb etish bo‘yicha (birjada va birjadan tashqari) savdolari tashkil etish hamda amalga oshirish tizimidir.

Markaziy bank pul bozoridagi o‘z operatsiyalarining hajmlarini, turlarini va o‘tkaziladigan joyini belgilaydi.

### **38-modda. Markaziy bank tomonidan mijozlarga bank xizmati ko‘rsatish**

Markaziy bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlarining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy hisobvaraqlariga, shu jumladan ular harbiy qismlarining, shuningdek Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

## **6-bob. O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi va pul muomalasini tashkil etish**

### **39-modda. O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi**

O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi O‘zbekiston Respublikasining pul birligini, pul muomalasini tashkil etishni va uni tartibga solishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining pul birligi so‘mdir. Bir so‘m yuz tiyindan iborat.

Soʻm Oʻzbekiston Respublikasidagi yagona cheklanmagan qonuniy toʻlov vositasidir.

Oʻzbekiston Respublikasi pul belgilarining nominal qiymati Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Soʻmning ramz tarzidagi grafik belgisi Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadi.

Markaziy bank Oʻzbekiston Respublikasi hududida naqd pul muomalasini tashkil etadi.

Soʻm va oltin oʻrtasida yoki boshqa qimmatbaho metallar oʻrtasida nisbat belgilanmaydi.

#### **40-modda. Pul belgilarini muomalaga chiqarish**

Markaziy bank Oʻzbekiston Respublikasi hududida qonuniy toʻlov vositasi sifatida pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Pul belgilari banknotlar va tangalar tarzida, shu jumladan qimmatbaho metallar tarzida chiqariladi.

Muomaladagi pul belgilari Markaziy bankning qatʼiy majburiyatlari boʻlib, ushbu pul belgilari uning barcha aktivlari bilan taʼminlanadi.

Pul belgilarining namunalari, shuningdek ularning dizayni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi bilan kelishilgan holda Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadi. Pul belgilarining dizayni Markaziy bankning mulkidir. Yangi namunalardagi pul belgilari muomalaga chiqarilishi toʻgʻrisidagi xabar, shuningdek ularning tavsiflari Markaziy bank tomonidan ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinadi. Markaziy bank va banklar talabga koʻra bir nominal qiymatdagi pul belgilarini boshqasiga hech qanday toʻlovsiz yoki vositachilik haqisiz ayirboshlashni amalga oshiradi.

Pul belgilarining himoya elementlariga doir talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Markaziy bank muhim sanalarga oid va esdalik pul belgilarini, shu jumladan qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini muomalaga chiqarishga haqli.

Numizmatika va kolleksiyalash maqsadlarida pul belgilarini sotish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Markaziy bank yoʻq qilib yuborilgan, yoʻqotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yoʻqotgan pul belgilarining oʻrnini qoplamaydi.

Pul belgilarini qalbakilashtirish va qonunga xilof ravishda tayyorlash qonunga muvofiq javobgarlikka sabab boʻladi.

#### **41-modda. Pul belgilarini tayyorlash va saqlash**

Markaziy bank pul belgilarining tayyorlanishini, muomalaga chiqarilmagan pul belgilarining saqlanishini, bosma qoliplar va boʻyoqlarning saqlanishi hamda yoʻq qilinishini taʼminlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yoʻq qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

#### **42-modda. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qoʻyiladigan talablar**

Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pul belgilari Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida toʻlovlarning barcha turlarida, shuningdek hisobvaraqlarga, omonatlarga oʻtkazish va joʻnatma sifatida oʻtkazish uchun oʻz nominal qiymati boʻyicha qabul qilinishi shart.

#### **43-modda. Shikastlangan pul belgilari**

Markaziy bank pul belgilarining muomalaga yaroqliligini aniqlash hamda shikastlangan pul belgilarini almashtirish tartibini belgilaydi va eʼlon qiladi.

Banklar shikastlangan pul belgilarini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq cheklovlarsiz almashtirib beradi.

#### **44-modda. Pul belgilarini muomaladan chiqarish**

Markaziy bank Oʻzbekiston Respublikasi hududida Oʻzbekiston Respublikasining har qanday pul belgilarini muomaladan chiqarishga haqli. Buning uchun Markaziy bank boshqaruvining ayirboshlash tartibi va vaqti koʻrsatilgan eʼlon qilingan qarori asos boʻlib xizmat qiladi.

Ayirboshlash uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan muddat tugagach ayirboshlanishi kerak boʻlgan pul belgilari qonuniy toʻlov vositasi sifatida oʻz kuchini yoʻqotadi.

#### **45-modda. To'lovlarni amalga oshirish**

To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi hududida banklar orqali amalga oshiriladi.

#### **46-modda. To'lov tizimlarining ishlashini ta'minlash**

Markaziy bank to'lov tizimining ishlashini ta'minlash maqsadida:

to'lov tizimining strategiyasini belgilaydi va amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlari operatorlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

to'lov xizmatlari bozorida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga doir talablarni belgilaydi;

to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlari operatorlari faoliyatini tartibga solishni hamda nazorat qilishni amalga oshiradi.

Markaziy bank banklarga va to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga to'lovlarga hisob-kitob-kliring xizmati ko'rsatilishini tashkil etishda, shu jumladan bank kartalari hamda boshqa to'lov vositalari orqali to'lagan holda ko'maklashishga, bunday operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilashga va tegishli ko'rsatmalar berishga haqlidir.

### **7-bob. Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish, shuningdek xalqaro zaxiralarni boshqarish**

#### **47-modda. Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish**

Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir.

Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida:

valyutani tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi; banklarning valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishga doir faoliyatini tartibga solishni va nazorat qilishni amalga oshiradi;

valyuta birjalari faoliyatini litsenziyalashni va tartibga solishni amalga oshiradi;

banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyasi limitlarini va boshqa prudensial normativlarni belgilaydi;

chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni ochish tartibini belgilaydi;

valyuta kursini aniqlash tartibini belgilaydi.

#### **48-modda. Xalqaro kliring va to'lov bitimlari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan kliring muassasalari bilan o'z nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi nomidan kliring hamda to'lov bitimlari, shuningdek har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir.

#### **49-modda. Xalqaro zaxiralar**

Xalqaro zaxiralar Markaziy bankning va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli aktivlaridan iboratdir.

Markaziy bank o'zining balans hisobvaraqlarida xalqaro zaxiralarni shakllantiradi, bu zaxiralar:

monetar oltinni;

Xalqaro valyuta fondidagi mablag' jalb qilishga doir maxsus huquqlarni va zaxira pozitsiyasini;

chet el valyutasini;

chet el hukumatlari, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan chiqarilgan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlarni;

xalqaro standartlarga muvofiq xalqaro zaxiralar tarkibiga kiritiladigan boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi.

Majburiyatlari xalqaro zaxiralarga kiritiladigan mamlakatlar va xalqaro moliya tashkilotlarining ro'yxati Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Xalqaro zaxiralar Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish, shuningdek xalqaro operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan darajada saqlab turiladi.

#### **50-modda. Chet el valyutasidagi operatsiyalar**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hamda umum qabul qilingan xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir.

### **8-bob. Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan munosabatlari**

#### **51-modda. Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan hamkorligi**

Markaziy bank hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati pul-kredit va soliq-budjet siyosati sohasida hamkorlik qiladi.

Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosat uchun ahamiyatga ega bo'lgan mo'ljallanilayotgan harakatlar hamda erishilgan natijalar to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va muntazam ravishda maslahatlashuvlar o'tkazishi shart.

Markaziy bank o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosati amalga oshirilishiga, uning asosiy maqsadlariga ziyon yetkazmagan holda, ko'maklashadi.

Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tizimli moliyaviy tanazzul vujudga kelishining oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish maqsadida moliyaviy barqarorlik uchun tavakkalchilik omillarini birgalikda baholash, kelishilgan qarorlar majmuini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish orqali moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi.

#### **52-modda. Davlat sektoriga mablag' jalb qilish masalalaridagi maslahatlashuvlar**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati kelgusi moliya yilida kreditlashning ichki va tashqi manbalaridan mablag' jalb qilish, shu jumladan ushbu mablag'ni jalb qilish doirasida to'lanadigan summalarni berish masalalari, shuningdek kreditlar berishning taklif etilayotgan muddatlari hamda shartlari yuzasidan Markaziy bank bilan maslahatlashadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi va uning davlat organlari olayotgan barcha qarzlar hamda kreditlar to'g'risida Markaziy bankka xabar beradi.

#### **53-modda. Depozitariy vazifalari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, shuningdek boshqa davlat organlarining pul mablag'larini va valyuta qimmatliklarini depozitga qabul qilishi mumkin. Markaziy bank depozitariy sifatida pul mablag'larini oladi va beradi, ularning hisobini yuritadi. Markaziy bank ko'rsatib o'tilgan depozitlar bo'yicha foizlar to'lashi mumkin.

#### **54-modda. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining fiskal agenti vazifalari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan shartlar asosida faoliyat yuritib, quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va davlat boshqaruvi organlarining fiskal agenti sifatida ish yuritishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan emitentlangan qarz majburiyatlarini (qimmatli qog'ozlarni) joylashtirishda, joylashtirishni ro'yxatga olishda;

qarz majburiyatlarining (qimmatli qog'ozlarning) qiymatini, ular bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashda;

qarz majburiyatlari (qimmatli qog'ozlar) bo'yicha hisobvaraqlarni yuritishda va ularga doir to'lov operatsiyalarini bajarishda;

qarz majburiyatlari (qimmatli qog'ozlar) bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish va davlat qarzini qaytarish jadvali hamda hajmi masalalari yuzasidan ularning bank tizimi likvidililigiga ta'siri va pul-kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda maslahat beradi.

#### **55-modda. Axborot almashish**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bank o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida doimiy ravishda tegishli statistik axborot almashishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari Markaziy bankka u o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotni taqdim etadi.

### **9-bob. Markaziy bankning kredit tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlari**

#### **56-modda. Majburiyatlar bo'yicha javobgarlik**

Markaziy bank va kredit tashkilotlari bir-birining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

#### **57-modda. Banklarning Markaziy bankdagi hisobvaraqlari**

Markaziy bank banklarning hisobvaraqlarini yuritishga va ulardan depozitlarni qabul qilishga haqli.

#### **58-modda. Markaziy bankning statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatishdagi vakolatlari**

Markaziy bank bank tizimi ehtiyojlari uchun hamda tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan statistik ma'lumotlarni almashish uchun axborot tarmog'ini yaratadi va saqlab turadi.

Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatish qoidalarini tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan kelishib oladi.

Markaziy bank o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun tegishli davlat boshqaruvi organlaridan yoki bevosita tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan axborotni (shu jumladan maxfiy axborotni) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda so'rab olishga haqli.

#### **59-modda. Markaziy bankning ustuvor huquqi**

Markaziy bankka qarzdorning Markaziy bankdagi hisobvaraqlaridagi qoldiqlari va boshqa aktivlari hisobidan o'zining qonun hujjatlarida belgilangan talablarini qanoatlantirishda ustuvor huquq beriladi.

Markaziy bank o'zining ustuvor huquqini hisobvaraqlardagi qoldiqlarni ushlab qolish yoki boshqa aktivlarni maqbul narxlarda sotish va sotish xarajatlari chegirib tashlanganidan keyin o'ziga tegishli bo'lgan miqdordagi tushumni ushlab qolish orqali amalga oshirishi mumkin.

### **10-bob. Kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini, shuningdek qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni tartibga solish va nazorat qilish**

#### **60-modda. Markaziy bankning tartibga solishga doir vazifalari**

Markaziy bank tartibga solishga doir vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagilarni belgilaydi:

banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining reyestrini yuritish tartibi hamda shartlarini;

amalga oshirilishi uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarini litsenziyalash tartibini;

bank faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibini;

banklar aksiyalarining potensial oluvchisini baholash tartibi va shartlarini;

chet ellik muassislarga (aksiyadorlarga) nisbatan ular tomonidan bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish chog'ida qo'yiladigan qo'shimcha talablarni;

O'zbekiston Respublikasi hududida chet davlatlar banklarining vakolatxonalarini ochish, akkreditatsiya qilish, ularning faoliyatini amalga oshirish va tugatish tartibini;

chet elda sho'ba bankni va filialni ochish uchun banklar boshqaruvi hamda moliyaviy holatining yetarliligi mezonlarini;

mikrokredit tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlari operatorlari ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdorini;

banklarga aloqador bo'lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish, shu jumladan ularga kreditlar berish bo'yicha cheklavlarni;

kredit tashkilotlarining, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarning va kredit byurolarining axborot xavfsizligiga doir minimal talablarni;

kredit tashkilotlari, to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolarining binolariga, ularning himoya qilinishini ta'minlashga, uskunalar, tashkiliy-texnik vositalar bilan jihozlanishiga hamda dasturiy ta'minotiga doir talablarni;

banklarning faoliyatini tugatish va banklarni tugatish, shu jumladan ixtiyoriy shaklda tugatish tartibini;

banklarni, mikrokredit tashkilotlarini, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarini va kredit byurolarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini;

tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash uslubiyotini;

banklarning va banklar guruhlarining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uslubiyotini;

Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlardan kelib chiqqan holda boshqa talablarni.

Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak va u tanishib chiqish uchun ochiq bo'lishi lozim.

Markaziy bank Banklar va kredit byurolarining davlat reyestrini, banklarga, mikrokredit tashkilotlariga, lombardlarga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalarga, kredit byurolariga hamda qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarish uchun berilgan litsenziyalarning reyestrini, shuningdek ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining reyestrini yuritadi.

### **61-modda. Markaziy bankning nazoratga doir vazifalari**

Nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish uchun Markaziy bank:

kredit tashkilotlari uchun moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va nazoratga doir hisobotlarni, shu jumladan yillik hisobotni tuzish hamda taqdim etish, tavakkalchiliklarini baholash hamda ularning faoliyatini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish bo'yicha majburiy bo'lgan qoidalarni;

faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni;

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunida](#) nazarda tutilgan hollarda foydani taqsimlash uchun banklar tomonidan Markaziy bankning roziligini olish tartibini;

konsolidatsiya chegaralarini (perimetrlari) va usullarini aniqlash tartibini;

banklar guruhining asosiy banki tomonidan banklar guruhining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan konsolidatsiyalashgan hisobotni va axborotni tuzish hamda Markaziy bankka taqdim etish tartibini;

banklar guruhining ishtirokchilari tomonidan banklar guruhining asosiy bankiga banklar guruhining faoliyati to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzish uchun zarur bo'lgan o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni taqdim etish tartibini;

banklarning hamda banklar guruhlarining ichki nazoratiga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga, shuningdek banklardagi korporativ boshqaruvga, shu jumladan banklarning kuzatuv kengashlari a'zolarining mustaqilligiga doir talablarni;

banklarning va banklar guruhlarining moliyaviy ahvolini tiklash rejalarining mazmuniga hamda ularni yangilashga doir talablarni, ularni taqdim etish va baholash tartibini;



kredit tashkilotlari, shu jumladan tizimli ahamiyatga molik banklar va banklar guruhlari uchun prudensial normativlarni hisoblab chiqarish tartibini hamda ushbu normativlarning yo'l qo'yiladigan qiymatlarini;

banklar, tizimli ahamiyatga molik banklar va banklar guruhlari uchun likvidlilik hamda kapitalning yetarliligi koeffitsientlariga qo'shimcha ustamalarni;

to'lanadigan haq miqdorlarining bazaviy darajasini aniqlash tartibini, shu jumladan jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilarga to'lanadigan har qanday foizlarni va foizsiz to'lovlarni, natura shaklidagi daromadlarni, shuningdek bank omonati shartnomalari bo'yicha pul mukofotlari qiymatlarining bazaviy darajadan og'ishining eng yuqori darajasini;

banklarda vaqtinchalik boshqaruvni amalga oshirish tartibini;

banklarning kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolarini va muhim ahamiyatga ega xodimlarini baholashdan o'tkazish tartibini, ularning malaka talablariga muvofiqlik mezonlarini, shuningdek ularni kelishib olish tartibini belgilaydi.

Markaziy bank nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish uchun:

kredit tashkilotlaridan, ularga aloqador bo'lgan shaxslardan, to'lov tashkilotlaridan, to'lov tizimlari operatorlaridan, valyuta birjalaridan, kredit byurolaridan, shuningdek banklar guruhlaridan, banklar tomonidan outsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslardan va kredit tashkilotlarining assotsiatsiyalaridan (uyushmalaridan) hisobotlarni, shuningdek boshqa hujjatlarni so'rab olishga va tekshirishga, olingan axborotni tushuntirib berishni talab qilishga;

kredit tashkilotlarini, to'lov tashkilotlarini, to'lov tizimlari operatorlarini, valyuta birjalarini, kredit byurolarini, bank tomonidan outsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarni, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni inspeksiya (tekshiruvdan) o'tkazishga;

banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining va kredit byurolarining ichki auditiga doir talablarni belgilashga;

banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan beriladigan iste'mol kreditlari va mikroqarzlar, shuningdek lombardlar tomonidan beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari va to'lovlarining eng yuqori qiymatlarini belgilashga;

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasiga banklar tomonidan har chorakda o'tkaziladigan kalendar badaliga qo'shimcha ajratmalar miqdorini belgilashga;

umidsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va tartib-taomilini belgilashga;

kredit tashkilotlari va kredit byurolari uchun hisobot shakllarini hamda uni tuzish uslubiyotini, taqdim etish davriyligi va muddatlarini belgilashga;

bankdan konsolidatsiyalashgan hisobot taqdim etishni talab qilishga;

moliyaviy ahvoli yomonlashgan taqdirda banklarga va banklar guruhlarining asosiy banklariga moliyaviy ahvolini tiklash chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi tiklash rejalarini ishlab chiqish hamda taqdim etishga doir talabnoma yuborishga;

kredit tashkilotlariga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida, shu jumladan kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishga;

banklar aksiyalariga bevosita va bilvosita egalik qiluvchilarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning moliyaviy ahvoli hamda ishchanlik obro'si haqida axborot so'rashga va olishga;

mikrokredit tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolari rahbarlari hamda bosh buxgaltyerlariga nisbatan malaka talablarini qo'yishga, shuningdek ularni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilashga haqli.

**62-modda. Kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar**

Markaziy bank kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha vazifalarni bajarish uchun quyidagi choralarni ko'radi:

kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibini belgilaydi;

kredit tashkilotlari faoliyatidagi ularning xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi tizimli kamchiliklarni aniqlaydi, shuningdek ularni bartaraf etish choralarni ko'radi;

o'z xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga yo'l qo'ygan kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llaydi;

kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining buzilgan huquqlarini tiklash borasida maslahatlar beradi va ko'maklashadi;

moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarni ko'radi.

Markaziy bank xalqaro tajribani va O'zbekiston Respublikasi moliya bozorining o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik indikatorlarini belgilaydi hamda o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Markaziy bankda kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish xizmati tashkil etiladi.

Markaziy bank nazorat tadbirini o'tkazishga haqli bo'lib, uning jarayonida Markaziy bank xodimlari kredit tashkiloti tomonidan bank xizmatlarining iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish chog'ida o'z faoliyatiga qo'yiladigan talablarga rioya etilishini tekshirish maqsadida kredit tashkilotining faoliyati doirasida bitimlar tuzish yoki operatsiyalarni bajarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi.

Nazorat tadbiri kredit tashkilotini oldindan xabardor qilmagan holda o'tkaziladi.

### **63-modda. Asoslantirilgan mulohazaning Markaziy bank tomonidan qo'llanilishi**

Qonun hujjatlarida belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan, ko'rib chiqilayotgan masalaning haqiqiy yoki iqtisodiy mazmuni rasmiy mazmunidan ustuvorligini nazarda tutuvchi professional baholash asoslantirilgan mulohazadir.

Asoslantirilgan mulohaza asosida qarorlar qabul qilish Markaziy bankning Bank nazorati qo'mitasi vakolatiga kiradi.

Markaziy bank asoslantirilgan mulohazadan:

bankni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatnomani, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish (berishni rad etish) chog'ida, shuningdek Markaziy bank tomonidan tartibga solish va nazoratga doir vazifalarni amalga oshirish chog'ida bankning bevosita hamda bilvosita muassislarining va aksiyalari egalarining, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning moliyaviy holatini hamda ishchanlik obro'sini baholash;

kredit tashkilotiga nisbatan birgalikda harakat qilayotgan shaxslarni aniqlash;

kredit tashkilotiga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda kredit tashkiloti tomonidan ancha qulay shartlar asosida bitimlar tuzilganligi faktlarini aniqlash;

kredit tashkilotida tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat tizimi sifatini samarali ichki siyosatlarining mavjudligi hamda amalga oshirilishi nuqtai nazaridan baholash;

aktivlarni va majburiyatlarni baholash, shu jumladan ularning kredit tashkilotida tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash uchun foydalanishga haqli.

Asoslantirilgan mulohaza Markaziy bank tomonidan kredit tashkilotlari va banklar guruhlarini faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish doirasida olingan axborotga, jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlardan, davlat organlaridan, shu jumladan chet el nazorat organlari hamda tashkilotlaridan, boshqa ochiq manbalardan olingan va asoslantirilgan mulohazani shakllantirish uchun muhim bo'lgan boshqa axborotga asoslanadi.

Asoslantirilgan mulohazani shakllantirish va undan foydalanish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi hamda qonuniylik, asoslantirilganlik, xolislik va bir xil yondashish prinsiplariga asoslanadi.

#### **64-modda. Markaziy bankning tartibga solish va nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish**

Markaziy bankning tartibga solish va nazorat qilish vazifalarini Markaziy bankning Bank nazorati qoʻmitasi amalga oshiradi.

Markaziy bankning Bank nazorati qoʻmitasining vazifalari, vakolatlari va funksiyalari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kredit tashkilotlarining, toʻlov tashkilotlarining, toʻlov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining, banklar tomonidan outsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim boʻlgan shaxslarning faoliyatini inspeksiya qilish (tekshirish) Markaziy bankning vakolatli xodimlari va Markaziy bank tomonidan belgilanadigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy bank bankning ichki auditi oʻtkazilayotganda auditorlardan Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga, shu jumladan tartib-taomillar va uslubiyotlarga rioya etilishini talab qilishga, shuningdek bevosita auditorlardan bank auditi bilan bogʻliq axborotni olishga haqli.

Markaziy bank kredit tashkilotlari, toʻlov tashkilotlari hamda toʻlov tizimlari operatorlari uchun majburiy boʻlgan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga doir ichki nazorat qoidalarini maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda tasdiqlaydi.

#### **65-modda. Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish**

Markaziy bank quyidagi harakatlarni va (yoki) faoliyatni bajarish va (yoki) amalga oshirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni beradi:

birgalikda harakat qiluvchi shaxslar yoki shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:

1) besh va undan koʻproq foizni, lekin koʻpi bilan yigirma foizni;

2) yigirma va undan koʻproq foizni, lekin koʻpi bilan ellik foizni;

3) ellik foizni va undan koʻproq foizni tashkil etadigan ulush bevosita yoxud bilvosita sotib olinayotganda;

oluvchiga bogʻliq boʻlmagan holatlarda ushbu qismning **ikkinchi xatboshisida** nazarda tutilgan miqdorlarda bank aksiyalari olinganda;

bank tomonidan boshqa bankning aksiyalari sotib olinayotganda;

banklar tomonidan oʻz aksiyalari sotib olinayotganda;

bank filiali roʻyxatga olinayotganda;

banklar tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqarida shoʻba banklar va vakolatxonalar ochilayotganda, filiallar tashkil etilayotganda, banklarning kapitalida ishtirok etilayotganda, shu jumladan chet el banklari tashkil etilayotganda;

banklar tomonidan naqd chet el valyutasi va (yoki) milliy valyuta Oʻzbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda hamda Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilayotganda;

banklarda auditorlik tekshiruvlarini oʻtkazishda (sertifikat koʻrinishida);

bank tomonidan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari outsorsingga topshirilayotganda;

bank qayta tashkil etilayotganda;

bank ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda.

#### **66-modda. Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi lozim boʻlgan shaxslarni inspeksiya (tekshiruvdan) oʻtkazish**

Markaziy bank kredit tashkilotlarini, toʻlov tashkilotlarini, toʻlov tizimlari operatorlarini, valyuta birjalarini, kredit byurolarini, banklar tomonidan outsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarni, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim boʻlgan shaxslarni tavakkalchiliklarni baholash natijalari asosida inspeksiya oʻtkazadi, shuningdek ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning soʻrovlari, jismoniy va yuridik

shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi murojaatlari bo'yicha alohida masalalar yuzasidan tekshiruvdan o'tkazishi mumkin.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o'tkazish tartibi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Inspeksiya (tekshiruv) davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan kelishuvsiz hamda ular xabardor qilinmasdan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning Bank nazorati qo'mitasi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lgan shaxslar faoliyatining inspeksiyadan (tekshiruvdan) o'tkaziladigan sohasi yo'nalishini Markaziy bank tarkibiy bo'linmalarining vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Markaziy bank tomonidan nazoratga doir vazifalarni bajarishga to'sqinlik qilinganligi uchun Markaziy bank nazorat qilishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llanilishi mazkur shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o'tkazishdan ozod etmaydi.

Markaziy bankning inspeksiya va tekshirish o'tkazishni amalga oshiruvchi bo'linmalarining vakolatlari, ularning majburiyatlarini taqsimlash Markaziy bankning Bank nazorati qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Inspeksiya (tekshiruv) o'tkazish uchun Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning, shuningdek banklar va sohaga oid boshqa tashkilotlarning xodimlari jalb etilishi mumkin.

### **67-modda. Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar**

Markaziy bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq banklarga, banklarning bevosita hamda bilvosita aksiyadorlariga, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlariga, kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolariga, shuningdek banklarning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo'llashga haqli.

Mikrokredit tashkiloti, lombard va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti qonun hujjatlari talablarini, shu jumladan belgilangan prudensial normativlarni buzgan taqdirda Markaziy bank:

ularning o'z kapitalining besh foizigacha miqdorda jarima undirishga;  
ayrim operatsiyalarni o'tkazishni uch oygacha bo'lgan muddatga cheklashga;  
mikrokredit tashkilotining va lombardning litsenziyasi amal qilishini tugatishga;  
ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotini ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari reyestridan chiqarishga haqlidir.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari kredit tashkilotlari tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda Markaziy bank ularga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar va sanksiyalar qo'llashga haqli.

Kredit tashkilotlariga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga, shuningdek qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqaruvchilarga choralar va sanksiyalar qo'llash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Markaziy bank ayni bir qoidabuzarlik bo'yicha bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket bir nechta choralar va (yoki) sanksiyalar qo'llashga haqlidir.

## **11-bob. Yakunlovchi qoidalar**

### **68-modda. Xalqaro hamkorlik**

Markaziy bank xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning markaziy banklari hamda bank nazorati va monetar siyosat bo'yicha boshqa organlari bilan hamkorlik qiladi hamda axborot almashishni amalga oshiradi.

Markaziy bank nazorat vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq axborotni almashish yuzasidan milliy va chet el organlari bilan hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar tuzishga haqli.

Markaziy bank chet davlatdan kelib tushgan axborotni uni taqdim etgan shaxsning roziligi bo'lgan taqdirda va tegishli shaxs qaysi maqsadlarda rozilik bergan bo'lsa, o'sha maqsadlarda oshkor qilishga haqli.

### **69-modda. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati**

Markaziy bank pul-kredit siyosatining va bank tizimining barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida Markaziy bank siyosatining maqsadlari va mohiyatini jamoatchilik e'tiboriga yetkazish orqali kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati tahliliy materiallarni, sharhlarni, statistik ma'lumotlarni, intervyularni, ma'ruzalarni e'lon qilish, shuningdek matbuot brifinglari tashkil etish orqali va umume'tirof etilgan xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda boshqa usullar bilan amalga oshiriladi.

Markaziy bank bank tizimi faoliyatining shaffofligini ta'minlash uchun o'zining rasmiy veb-saytida quyidagi axborotni:

banklarni nazorat qilish hamda tartibga solish sohasida qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini va ularning qo'llanilishiga doir tavsiyalarni;

banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishi uchun banklar tomonidan qo'llaniladigan tizimlar, strategiyalar, tartib-taomillar hamda mexanizmlarni tekshirishda va banklar duchor bo'lgan yoki duchor bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni baholashda foydalaniladigan umumiy mezonlar hamda uslubiyotlarni;

banklarning rahbarlari ro'yxatini;

banklarning hisobotlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni, bundan bank sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar mustasno;

ko'rilgan choralar va sanksiyalarni e'lon qiladi hamda muntazam ravishda yangilab turadi.

#### **70-modda. Markaziy bankning xodimlarini o'z vazifalarini bajarishi chog'ida huquqiy jihatdan himoya qilish**

Markaziy bank, uning xodimlari, tashqi ekspertlar va vaqtinchalik boshqaruvchilar, shuningdek nazorat qilishga doir vazifalarni bajaradigan ushbu Qonunda belgilangan boshqa shaxslar, shu jumladan ularning vakolatlari tugatilganidan yoki Markaziy bankda ishlashi tugaganidan keyin faqat o'z vazifalarini bajarishi chog'ida insofsizlik bilan amalga oshirgan harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgar bo'ladi.

Markaziy bank ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslarning manfaatlarini, mazkur shaxslar ushbu Qonunga muvofiq bajaradigan vazifalar munosabati bilan qo'zg'atilgan sud ishini va ma'muriy ishni yuritishda, shu jumladan ularning vakolatlari tugatilgan yoki Markaziy bankda ishlashi tugagan hollarda, ifodalashga doir xarajatlarni to'laydi.

#### **71-modda. Markaziy bankning qarorlari ustidan shikoyat qilish**

Markaziy bankning qarorlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

#### **72-modda. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son)*